

## THE ROLE OF THE CHEMICAL INDUSTRY IN ENVIRONMENTAL POLLUTION

**Sharipova Nasiba O'ktamovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Kimyo» kafedrası assistenti

**Axmadova Dilnora Siddiqovna**

BMTI "NGT" fakulteti 200-21 NGT guruhi talabasi

**Annotation:** The article discusses the role of polluting chemicals and chemicals produced by chemical enterprises in the development of the industry and their harmful effects on the environment and animals.

**Keywords:** pesticides, insecticides, ash, dust, coke, industry, metallurgy, gaseous, vapor, soil, atmosphere, waste, DDT-dichlorodiphenyltrichloroethane, defoliantes, algicides, repellents, attractants, desiccants.

### Asosiy qism

Insonning tabiatga yetkazgan salbiy ta'siri natijasi fan-texnika inqilobi davrida, ayniqsa, avj oldi. Ilmiy texnika yutuqlari asosida zavod, fabrikalar va qishloq xo'jaligining rivojlanishi, xalq xo'jaligining o'sishiga olib kelishi bilan bir qatorda tabiiy boyliklarining isrof bo'lishiga, chiqindilar bilan atrof-muhitni ifloslanishiga olib keldi.

Atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalar asosan kimyoviy moddalar hisoblanadi. Ularni ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: atrof-muhitni ifloslantiruvchi kimyoviy moddalar va kimyo sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan kimyoviy preparatlar.

Kimyoviy preparatlar va kimyoviy o'g'itlarga-pestisidlar (lotincha so'z pestis- zahar va cid-o'ldirmoq) deyiladi. Ularni kimyoviy tarkibiga ko'ra uch guruhga bo'lishimiz mumkin: 1-anorganik birikmalar (margimush, mis, rux, ftor, bariy, simob, oltingugurt birikmalari, xloratlar va boshqa birikmalar); 2-o'simlik, zamburug', bakteriyalardan olinadigan (pirstiroidlar, anabazin, nikotin, bakterial preparatlar, antibiotiklar va boshqalar) kimyoviy moddalar; 3-organik birikmalar, ular ta'siri jihatidan aktiv moddalar hisoblanadilar.

### Pestisidlar ishlatilishiga qarab bir necha guruhga bo'linadi:

1. **Insektisidlar** (*insectum-hashorat, cido-o'ldirmoq*) – o'simlik zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan preparatlar (*akarasidlar-kanalarga qarshi; lavrisidlar-dumaloq chuvalchaglarga qarshi; nematosidlar-shilliq qurtlar va buzoqboshilar; zoosidlar-hayvonlar*);
2. **Fungisidlar va bakterisidlar** – zamburug' va bakteriyalarga qarshi preparatlar;
3. **Gerbisidlar** – begona o'tlarga qarshi vosita;
4. **Defoliantlar** – barglarni sun'iy to'kish vositasi;
5. **Desikantlar** – o'simliklarni qovjiratib ildizini quritadigan preparatlar;
6. **Arborisidlar** – xalaqit beradigan dov-daraxtlarni quritadigan kimyoviy moddalar;
7. **Algisidlar** – suv o'tlarini yo'qotish uchun kimyoviy moddalar;
8. **Repilentlar** – hasharotlarni haydovchi kimyoviy vosita;
9. **Atraktantlar** – hasharotlarni chaqiruvchi kimyoviy vositalarga ajratamiz.

1874-yilda birinchi bo'lib pestisidlar kashf etilishi bilan inson zararkunanda hasharotlarga qarshi kurasha boshlagan. Yer yuzida shu kungacha faqatgina DDT (*dixlordifeniltri-xloretan*) dan 2-5 mln tonnagacha ishlatilgan. Uning parchalanish davri 3 yildan 25 yilgacha bo'lib, hanuzgacha uning atrof-muhitga ta'siri kamaygani yo'q. 1970-yilda DDT ishlab chiqarish to'xtatildi va undan foydalanish bekor qilindi. DDT nafaqat hasharotlarga balkim baliq, qushlar, hayvonlar va insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan, hattoki Antarktida muzliklarida yashovchi tyulenlar, pingvin, oq ayiqlarning jigarlarida turli xil sanoat va qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan kimyoviy zaharli moddalar aniqlangan.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz sanoat korxonalari tamonidan atmosferaga 2000 ga yaqin ifloslantiruvchi moddalardan 2.5 mln tonna, suv havzalariga 1500 ga yaqin moddalardan 170 mln metr kub ifloslangan oqova

suv va tuproqqa 50 ga yaqin kimyoviy moddalar va 150ga yaqin petisidlardan sanoat, maishiy chiqindi va kimyoviy moddalar miqdori 289 mln tonnaga yetgan.

Yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida quyidagi ba'zi ma'lumotlarni keltirish mumkin: so'nggi yuz yil ichida dunyo aholisi salkam 4 barobarga; inson yaratgan texnik vositalarning o'rtacha harakat tezligi -100 barobarga; energiya olish miqdori -1000 barobarga; harbiy qurollar quvvati - 1000000 barobarga ortdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, butun tirik organizmlarni o'z bag'riga olgan tabiatda turli zararli moddalar haddan tashqari ko'payib ketmasa, tabiiy jarayonlar ta'sirida zaharli omillar o'z-o'zidan zararsizlanishi mumkin. Atmosfera havosiga chiqarib tashlangan gazsimon, bug'simon moddalar yoki changlar oz miqdorda bo'lsa, ular vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan havo muhitida zararsiz holatga o'tib qoladi. Atmosfera havosining o'z holicha tozalanish xususiyati juda sekinlik bilan boradi. Atmosfera havosining tozalanishida yog'ingarchilik asosiy o'rin tutadi. Havo tarkibida mavjud bo'lgan zararli omillarni qor va yomg'ir suvlari yuvadi. Yog'ingarchilik qanchalik ko'p bo'lsa, havo tarkibi shunchalik tozalanadi. Atmosfera havosini tozalashda daraxtlar, qolaversa, o'simliklar olamining ahamiyati katta. Daraxt barglari chang zarralarini, zararli gazlarni o'ziga singdirib olib, fotosintez jarayonida o'zidan kislorod chiqaradi. Shuning uchun katta bargli daraxtlar sonini ko'paytirish choralarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атоев Э. Х., Бердиева З. М. изучение устойчивости комплексных соединений металлов с некоторыми фосфорорганическими лигандами //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 10-2 (88). – С. 6-8.
2. Атоев Э.Х. Экологические факторы и их роль в природе. “Сифатли таълим: муаммо ва истикболлар” мавзусидаги вазирлик миқёсида илмий-амалий анжуман материаллари. Нукус, 2018, 111-113 б.
3. Атоев Э.Х., Бешимов Ю.С. Экологические проблемы на производстве и в учебном процессе. International scientific conference “Innovation in the modern education system”. Washington University in St.Louis. Part 11. P. 112-115.